



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar-iyun oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 602,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,0 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyun
mlrd. so'm



yanvar-iyun
FHI, %






■ mlrd. so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (12 710,9 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (9 700,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-iyun oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 18 602,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 100,0 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (40,2 %), Jomboy tumani (9,9 %), Urgut tumani (7,8 %), hamda Toyloq (6,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (117,3 %), Kattaqo'rg'on tumanida (113,2 %) hamda Qo'shrabot tumanida (112,1 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-iyun oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 4,0 % ga hamda Ishlab chiqarish 9,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 27,7 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 10,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 118,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,1 % (13,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 21,5 % (17,9 %) va quyi texnologiyali 61,7 % (65,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 2,2 marta), metallurgiya sanoatining ulushi 9,8 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 18,6 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 36,3 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	29,0	28,4	- 0,6
Paxta tolasi, ming t.	35,2	29,0	- 6,2
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	18,3	25,4	7,1
Shag'al – ming t.	255,9	185,2	- 70,7
Gilam va gilam mahsulotlari - ming kv.m	13 417,7	13 931,9	514,2
Tamaki – mln. dona	4 838,5	5 110,6	272,1
Piva – ming litr	12 438,0	11 691,0	- 747,0

2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi mahsulotlari 29,0 ming t. (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 17,6 % ga) hamda 70,7 ming tonna shag'al (27,6 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 492 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 36,0 % ga ko'paygan.



2024-yil

1 492 dona

2024-yil

136,0 %

2023-yil

1 097 dona

2023-yil

50,6 %

2022-yil

2 166 dona

2022-yil

104,5 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-iyun oylarida 375 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga kamaygan.



2024-yil

375 dona

2024-yil

97,9 %

2023-yil

383 dona

2023-yil

79,3 %

2022-yil


483 dona

2022-yil

97,6 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 118,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,8 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 94,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 820,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 86,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,1 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 2,0 martani va ishlab chiqarish hajmi 1 137,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 113,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,3 %, fizik hajm indeksi esa, 99,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 081,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 205,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 19,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 461,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 103,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 539,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 133,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 129,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 273,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 193,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 97,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 239,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 50,2 %.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 172,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 429,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 150,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 110,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 483,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 90,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 110,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 483,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 66,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 %, fizik hajm indeksi 102,9 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 593,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 57,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	54 072,2	117 101,6	63 029,4
Issiqlik energiyasi, mln. gkal	3 157,9	3 996,9	839,0



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	25 276,8	32 426,3	7 149,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	54 721,6	64 801,2	10 079,6
Plastmassa chiqindilari, tonna	1 557,8	1 771,4	213,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 243 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 081 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,6 %) Samarqand shahriga, 723 tasi (13,7 %) Urgut tumaniga, 554 tasi (10,6 %) Samarqand tumaniga, 372 tasi (7,1 %) Pastdarg'om tumaniga va 292 tasi (5,6 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

681 ta

2024-yil yanvar-iyun

751 ta

2023-yil yanvar-iyun

1 013 ta

2022-yil yanvar-iyun



Jami faoliyat yuritayotgan (1-iyul holatiga)

5 243 ta


2024-yil

6 238 ta

2023-yil

8 458 ta


2022-yil





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 087,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyun
mlrd. so'm



yanvar-iyun
ulushi, %



■ mlrd. so'm ■ o'sish sur'ati, %